

XIVA XONLIGIDA TIPOLITOGRAFIYANING OCHILISHI VA FAOLIYATI

Tillayev Dilmurod Ollaberganovich

UrDU akademik litseyi oliy toifali tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonda bosmaxona tashkil etilganligi va mahalliy millat vakillari orasida ham bosmaxona ishlari bo'yicha mutaxassislar ishlay boshlagani haqida ma'lumot beriladi. Xiva xoni tomonidan tipolitografiya tashkil etilganligi va uning ishga tushirilishi haqida qayd etilgan. Xiva xonligida tipolitografiyaning rivojlanishi hamda xonlik o'z madaniyati va tarixi haqida yozma manbalarni saqlashda ularga murojaat qilishgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, bosmaxona, tipolitografiya, mutaxassis, litografik uskuna, madaniyat, manbaa

Аннотация: В данной статье приводятся сведения о создании типографии в Туркестане и работе специалистов по полиграфическому делу среди представителей местного народа. Большое значение имеет развитие типолитографии в Хивинском ханстве и то, что ханство обратилось к ним в деле сохранения письменных источников о своей культуре и истории.

Ключевые слова: Хивинское ханство, типография, типолитография, специалист, литографическое оборудование, культура, источник.

Annotation: This article provides information about the establishment of a printing house in Turkestan and the work of specialists in printing work among the representatives of the local nation. The development of typolithography in the Khiva khanate and the fact that the khanate turned to them in the preservation of written sources about its culture and history are of great importance.

Key words: Khanate of Khiva, printing house, typolithography, specialist, lithographic equipment, culture, source

O'lkada birinchi bosmaxonaga 1868-yilda Turkiston harbiy okrugi shtabi huzurida asos solindi. Lekin bu bosmaxona yaxshi jihozlanmaganligi tufayli faqatgina devonxona materiallari, turli blankalar va buyruqlarni bosib chiqarishga moslashgan edi. Shu sababdan 1869-yilda boshqa bosmaxona tashkil qilindi. Ushbu yangi bosmaxona nafaqat rus, balki arab harflariga ham ega bo'lib, 1870-yildan to'liq o'z faoliyatini boshlagan. Turkistonda bosmadan chiqarilgan dastlabki kitob mashhur rus sayyohi N. Seversovning qirq sahifadan iborat bo'lgan risolasi edi. O'zbek tilida bosmadan chiqqan dastlabki kitob Shohimardon Ibrohimov tomonidan tayyorlangan "Taqvim" edi. Rus matbaachilari tijoriy maqsadlarda xususiy bosmaxonalarga asos solgan edilar. Bu bosmaxonalarda rus millatiga mansub mutaxassislar bilan birgalikda tatar millatiga mansub mutaxassislar ham mehnat qilganlar. Ular tijoriy maqsadlarda arabiy harflarda kitob bosishni ham yo'lga qo'ygan edilar. Bu masalada rus noshirlari tatar matbaachilaridan foydalandi. Ayni paytda bu matbaaga mahalliy millat vakillari ham ko'proq harf teruvchi sifatida ishga qabul qilingan. Masalan, Bazilevskiy matbaasida tatar mutaxassis harf teruvchilari - Shaxingirey Bekqulov, Abdulatif Yavushev va Ali Bektemirovlar faoliyat ko'rsatganlar. Bu odamlarning qo'liga shogird qilib erli xalq vakillari Sirojiddin Xo'jaev, Hamid Xo'jaev, Abdurahmon Xo'jaevlar olindilar. Bu shaxslar dastlabki o'zbek matbaachilaridan hisoblangan. Shu tariqa mahalliy millat vakillari orasida ham bosmaxona ishlari bo'yicha mutaxassislar shakllana boshladi.

Turkistonda bosmaxonalarning vujudga kelishi va taraqqiyotini hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, Xiva xonligi madaniyatni yuksaltirishga intilish O'rta Osiyoning qolgan mintaqalariga nisbatan kuchliligi, yangiliklarga nisbatan ochiqligi, o'zbek xonliklari ichida birinchi matbaaga asos solinishida

buninig asosiy omili edi. Xiva hukmdori Muhammad Rahimxon II farmoni bilan 1874-yili Erondan litografik uskuna olib kelindi va saroyda tipolitografiya tashkil etildi. Xon saroyida tashkil qilingan tipolitografiyani Otajon Abdalov eronlik ustozlari Ibrohim Sulton rahbarligida ishga tushirdi. Ushbu bosmaxona “Podshohi zamon tipolitografiyasi” deb nomlangan bo’lib, tadqiqotlarga ko’ra, Muhammad Rahimxon II matbaani Jenevadan keltirgan ekan. Ammo bu bosmaxona tijoriy maqsadlarda qo’llanmaganligi sababli Xiva aholisiga ta’siri juda oz bo’lgan.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon II 1896-yilgi Rossiyaga qilgan safari davomida Nijniy Novgorodda har yili tashkil etiladigan an’anaviy ko’rgazma-bozorga tashrif buyuradi. Xon ko’rgazma pavilyonlaridan birida qo’yilgan bosma uskunasi e’tibor beradi va uni barcha kerakli ashyolari bilan sotib olishga qaror qiladi. Ismoil G’asprali bergan xabarga ko’ra, Muhammad Rahimxon sotib olinajak bosmaxona uskunasi Xivadagi madrasalardan biriga vaqf qilish niyatida bo’lgan. Lekin bu bosmaxona haqida boshqa biror ma’lumot yo‘q. Bu misol orqali XIX asr oxiridagi Xiva adabiy muhiti Qo‘qon saroyi muhitidan yuqoriroqda ekanligi ta’kidlanadi. Ayni vaqtda, o‘rta asrlar madaniy va she’riy an’analariga rioya qilib, ularni davom ettirayotgan Xiva adabiy muhiti Yevropa tipidagi yangiliklardan uzoq bo‘lib qolgan edi. Sababi, ta’kidlaganimizdek, Muhammad Rahimxon II an’anaviy yo‘ldan borishni tanlagan edi. Shu sababdan 1910 yil Muhammad Rahimxon II dunyodan ko‘z yumib, o‘rniga o‘g‘li Isfandiyorxon (1910–1918) taxtga o‘tirgandan keyin mamlakatda sharoitni yangilash maqsadida katta islohotlar amalga oshiriladi.

1883 yilda Komil Xorazmiy Muhammad Rahimxon II bilan birga Moskva, SanktPeterburg shaharlarida bo‘lib, rus xalqi madaniyati va hayotini o‘rganadi hamda ilg‘or madaniyat, san’at namunalarini Xivada ham yo‘lga qo‘yish ishini xonga targ‘ib qiladi. Safardan qaytgach, u Xivada rus-tuzem maktabi

ochilishiga rahnamolik qildi. Xivadagi maktabda 1887 yilda 11 ta o‘quvchi ta’lim olgan. 1891 yilda Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Xivada ochilgan rus-tuzem maktabi to‘g‘risida “Turkiston viloyatining gazetasi” shunday xabar bergan: “...Xiva mamlakatida Rusiya tilini o‘rganmoqning boshlanishini xohlab, Rusiya tilida ta’lim beradurgon maktabxonaga ochib, ul maktabda o‘n bola uchun joy va xarajat ta’min qilinibdur. Ushbu yil aprel oyida Turkiston viloyatidagi tamomi Rusiya madarasasi va maktabxonalarining noziri...Xivaga borib ...mazkur maktabni ko‘ribdur... Xon (Feruz) andin Xivaga bir o‘ris domlasi yubormoqni iltimos qilibdur. Shul sababdin Rusiya tili va ilmi hisobini o‘rgatmoq uchun ushbu yil Toshkent shahrida Uchitelskaya seminariyani juda yaxshi xatm qilg‘on qozoq musulmon Xusayn Ibrohim o‘g‘lini maktabxonaga domlalikka tayinlabdur”. Bu esa Xiva an’anaviy muhiti uchun, kichik bo‘lsa-da, islohot edi. Ya’ni, o‘z vaqtida Feruzga she’riy kechalar o‘tkazib ovunishni maslahat bergan Komil Xorazmiy qarashlarida yangiliklar sari o‘zgarishlar yuz beradi: u Rossiya safaridan keyin maorif sohasida modernizatsiyaga intila boshlaydi. 1892 yili Komil Xorazmiy Toshkentga keladi va tipolitografiya, teatr, gimnaziya va maktablar, kasalxonalar, gazetalar muharriyati ishi bilan tanishadi. O‘rta asr an‘analari ichida yashayotgan Xiva saroyi muhitidan Toshkentga kelgan shoir o‘z yurtdoshlari, butunlay yangi, zamonaviy bir sharoitda yashayotganlariga guvoh bo‘ladi.

Jadid namoyandalari aholini diniy bo‘lmagan adabiyot bilan yanada yaqindan tanishtirish maqsadida 1909-yildan boshlab turli shirkatlar tashkil eta boshladi. Bular qatoriga Buxorodagi “Shirkati Buxoroi sharif”, Toshkentdagi “Maktab”, Qo‘qondagi “G‘ayrat” jamiyat va shirkatlarini misol qilish mumkin. Ushbu kabi tashkilotlarning asosiy vazifalari yangi usul maktablari uchun darsliklar chop qilish bilan bir qatorda mahalliy aholi orasida turli kitoblar, gazeta va jurnallarning keng yoyilishini yo‘lga qo‘yish edi. Quyida keltirilgan jadvaldan 20-asr boshlarida Turkistonning ayrim yirik shaharlarida kitob

savdosi bilan mashgʻul boʻlgan doʻkonlarning rasmiy idoralar tarafidan roʻyxatga olinish xronologiyasini koʻrish mumkin. Turkiston xonliklarida birinchi matbaa Xivada tashkil etildi. Xiva hukmdori Muhammad Rahimxon Soniyning qarori bilan 1874-yili Erondan litografik uskuna olib kelindi va saroyda tipolitografiya tashkil etildi. Xon saroyida tashkil qilingan tipolitografiyani xivalik Otajon Abdalov (1856-1927) yurita boshladi. U ruslar tarafidan tashkil qilingan maktabda taʼlim olgan va tipolitografiya ishlarini 1874-1878-yillar orasida Xivada istiqomat qilgan eronlik matbaachidan oʻrgandi. Xiva xonligida tipolitografiya, yaʼni matbaa usuli, 19-asr oxirlarida va 20-asr boshlarida rivojlangan. Bu usul orqali gazeta va kitoblar chop etish imkoniyati oshdi, natijada maʼlumot tarqatish va madaniy rivojlanish tezlashdi. Xiva xonligi oʻz madaniyati va tarixi haqida yozma manbalarni saqlashda va ularga murojaat qilishda muhim rol oʻynadi. Matbaa sanʼati orqali adabiyot va ilm-fan taraqqiyotiga hissa qoʻshildi Tipolitografiya, matbuotda matn va rasmni yaratish uchun ishlatiladigan bir qismini tashkil etadi. Xiva xonligida tipolitografiya ochilishi va faoliyati esa tarixiy va ijtimoiy oʻzgarishlarga bogʻliq edi.

Xiva xonligida tipolitografiya ochilishi 19-asrning oxirida boʻlgan. Ushbu davrda Xivada oʻqituvchi va ilmiy oʻquv markazlarining yanada rivojlanishi bilan kitobxonalar soni katta oʻsgan edi. Bu esa matbuotning ham rivojlanishiga taʼsir qildi. Tipolitografiyaning faoliyati esa matn va rasmni yaratish, tahrir qilish, nashr qilish va tarqatish jarayonlarini oʻz ichiga oladi. Bu jarayonlarda harf, soʻz, gap va matnlar bilan ishlovchi vositalar, misol uchun qogʻoz, chizmachilik vositalari va qogʻoz kesish asboblari ishlatiladi. Tipolitografiya orqali yaratilgan asarlar, kitoblar va gazetalar Xivada oʻqituvchi va ilmiy markazlar, diniy institutlar va hokimiyat organlari tomonidan foydalanilardi. Bu esa oʻquvchilar, ilmiy fanlar bilan shugʻullanuvchi shaxslar va umumiy aholi uchun maʼlumotlarni tarqatish imkonini berdi. Xiva xonligida tipolitografiya

faoliyati tarixiy manzillarda yaxshi boshlangan edi. Bu esa Xiva shahrida ilmiy-fan rivojlanishning bir elementi sifatida ko'rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. А.Р.Мухаммаджонов, Т.Неъматов. Некоторые источники к истории взаимоотношений Бухары и Хивы с Россией. Т.1957.С.139
2. Н.Муравьев. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах, гвардейского генерального штаба капитана Николая Муравьева, посланного с сии страны для переговоров. М, 1822, II, С. 92-93
3. Камолов С.К. Каракалпаки в XVI-XX веках. Т. Фан. 1968. С. 171-172
4. А.Р.Мухаммаджонов, Т.Неъматов. Некоторые источники к истории взаимоотношений Бухары и Хивы с Россией. Т. 1957.С.140
5. Е.В.Бунаков. К вопросу о сношениях России с среднеазиатскими ханствами в XIX в., Советское востоковедение. Т. II. М., Л., 1941 С. 8-9.
6. А.М.Аминов. Экономическое развитие Средней Азии. Стр. 54
7. М.Иванин. Хиви и река Амударья. Стр. 73